

## ASQAR MAHKAM SHE'RLARIDAGI INTERTEKSTLARNING POETIK VAZIFASI

Raimova Sayyora Zaitovna

TerDU dotsenti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20593833>

**Annotasiya.** Mazkur maqolada Asqar Mahkam ijodidagi intertekstual birliklarga e'tibor qaratilgan. Ularning poetik matndagi o'rni va vazifalari aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** Asqar Mahkam, intertekstuallik, iqtibos, talmeh, allyuziya.

**Abstract.** This article focuses on intertextual units in the works of Askar Mahkam. Their role and functions in the poetic text are identified.

**Keywords:** Askar Mahkam, intertextuality, quotation, talmeh (allusion to historical/literary events), allusion.

**Аннотация.** В данной статье акцентируется внимание на интертекстуальных единицах в творчестве Аскара Махкама. Определены их место и функции в поэтическом тексте.

**Ключевые слова:** Аскар Махкам, интертекстуальность, цитата, талмех (аллюзия), аллюзия.

Mumtoz tarixiy va diniy manbalarga murojaat etish badiiy matnning falsafiy va estetik salmog'ini oshirishda muhim ahamiyatga molik an'anaviy usullardan biri hisoblanadi.

Asqar Mahkamning "Vahdat kuyi" va "Haq" asarlarida Sharq she'riyatiga xos bo'lgan poetik vositalar – iqtibos, talmeh va alluziyalar tizimli ravishda qo'llanilgan.

Masalan, Asqar Mahkam 1999-yilda yozgan "So'z joni" she'rida iqtibosni intertekstual birlik sifatida o'z g'oyaviy maqsadini ifodalash uchun qo'llaydi:

Odam bo'lmas hech kim o'qimay

Mavlononing kulliyotini!

Va payg'ambar rahmat tog'ida

Tinglamoqda ilohiy vahiy.

Butun olam ahlin og'zida

"Iqro bismi Robbikal-laziy!"

Mazkur satrlardagi "Iqro bismi Robbikal-laziy!" Alaq surasining 1-oyatidan olingan to'g'ridan-to'g'ri iqtibos hisoblanadi. Muhammad payg'ambarga Rahmat tog'ida kelgan ilk ilohiy vahiy matni sifatida butun olam ahlining og'zida ekanligi alluziya qilingan

N.Pege-Gro iqtibos intermatnlikning eng yaxshi namunasi ekanligini, uning ko'zga yaqqol tashlanib turish xususiyati matnlararo qo'shiluvni bevosita ko'rish imkonini berishini ta'kidlaydi.

Chunki bunday matn hatto qo'shtirnoq bilan ajratilgani bois tez ko'zga tashlanadi va endi resepiyentga qiyinchilik tug'dirmaydi, faqat uning tahlili va talqiniga e'tibor qaratishni taqozo qiladi.

Iqtibos intertekstuallikning eng kichik va sodda ko'rinishi hisoblansa-da, uning matn to'qimasidagi tashiydigan ma'nosi, vazifasi anchayin murakkablik kasb etadi. "Sitata keltirish usuli ochiq xarakterga ega bo'lsa ham, bundan uning murakkablik darajasi kamayib qolmaydi"

Shoir "Musos va Tur" she'rida ham Qur'oni karim oyatlaridan iqtibos sifatida foydalanadi:

Asta-asta tog'lar tebranar

"Va bussatil jibalu..."dayin,

"Zilzilatul arzu..." eslatar

Nechuk titrar bir kuni zamin.

“Va bussatil jibalu...” iqtibosi esa Voqea surasining 5-oyatidan olingan.

Keyingi satrlardagi "Zilzilatul arzu..." (Vahdat kuyi, 221-bet) – Zilzila surasining 1-oyatiga ("Yer o'zining dahshatli zilzilasi bilan titratilgan mahal...") ishora qiluvchi iqtibos.

Shoir ruboiylarida ham kichik iqtiboslardan unumli foydalangan:

Bizlarni bino aylagan ul zotga hamd,

“Iqro”degan Ul Xoliqi Ustodga hamd.

Gar aslimiz tuproq edi bok yo‘qdir hech,

Odamligimiz yetar, bu ijodga hamd.

Asqar Mahkamning ham diniy-ma'rifiy she'rlari intertekstlarga boyligi bilan qimmatlidir.

“Vahdat kuyi” to‘plamidan joy olgan “Hurriyat” she'rida shoir erk va ozodlikni yuksak pardalarda kuylash maqsadida, ya'ni hurriyatning muqaddasligini bir qancha allyuziya vatalmehlar vositasida ifoda etadi:

Zaburdek zalvorli,

Tavrotdek taborak,

Injildek ohorli,

Qur'ondek muborak – Hurriyat.

Yuqoridagi satrlardagi alluziyalar bevosita shaxslar orqali emas, balki muqaddas kitoblar matnlari, diniy frazeologizmlar va geografik hamda afsonaviy makonlar orqali voqelikka bilvosta ishora qilganini ko‘rishimiz mumkin.

Nuh kabi poydor,

Yaqubdek dilbar,

Yusufdek xoru zor,

Sulaymondek shahriyovar – Hurriyat.

Bilqisdek husndor,

Hallojdek haqparast,

Rumiydek Shamsiga yor,

Mashrabdek mast-alast – Hurriyat.

Shoir “Zabur”, “Tavrot”, “Injil”, “Qur'on” kabi muqaddas kitoblar va Nuh, Ya'qub, Yusuf, Sulaymon, Bilqis kabi payg‘ambarlar hamda Halloj, Rumiy, Shams, Mashrab kabi tarixiy shaxslarning muborak ismlari orqali she'r mazmunini yuksaltirishga muvaffaq bo‘lgan.

“Zabur”ning Dovud (a.s.) ga, “Tavrot”ning Muso (a.s.) ga, “Injil”ning Iyso(a.s.) ga, “Qur'on”ning esa ikki olam sarvari Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallamga yuborilishi va uni ummatlariga yetkazish yo‘li qanchalar sharafli va mashaqqatli kechgan bo‘lsa, bizning xalqimiz uchun ham hurriyat shunday zahmatli tarixga ega ekanligi bayon qilingan.

Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamgacha kelgan payg‘ambarlarning qavmlari qanday adashuvlarga mahkum bo‘lgan bo‘lsa, bizning ulusimiz ham ne-ne jahongirlar tuzgan buyuk davlatni adashuvlar tufayli qo‘ldan boy berdi va hurriyatga yetmog‘imiz yo‘lida qanchalab qurbonlar berishdi.

She'ning keyingi bandida Nuh(a.s.), Ya'qub(a.s.), Yusuf(a.s.), Sulaymon(a.s.), Bilqis (a.s.) kabi payg‘ambarlar nomini istifoda etgan shoir talmeh intertekstlar orqali hurriyatga erishuv - payg‘ambarlarning tarixi, hayoti, qismati kabi sharafli ekanligi va bu voqea yuksak baholanishga munosibligini ta'kidlaydi.

Undan keyingi band misralarida kelgan Halloj, Rumi, Shams, Mashrab kabi tarixiy shaxslarning muborak ismlari asosida yaratilgan talmehlar orqali hurriyat biz ko'zlagan manzil, ya'ni haqiqat ekanligini uqtiradi.

Hurriyat - Halloj, Rumi, Shams, Mashrab kabi Haq vaslini izlab o'tgan oshiqning borar manzilidek muqaddasligini aytadi.

She'ra shoirning hurriyatni "Hallojdek haqparast" degan iqrordan yaralgan intertekstlar assosiativ vazifa bajaradi. Kitobxon tafakkurida Mansur Hallojning "Anal-haq" kalomi paydo bo'ladi.

Asqar Mahkamning "Rumiye Shamsga yor" misralaridagi ma'noni uqish uchun Jaloliddin Rumi va Shams Tabriziy o'rtasidagi ustoz shogirdlik muhabbatini anglash lozim. Bu ikki murshid va murid haqida manbalarda shunday keladi: "Rumiyshunos olimlar ta'biri bilan aytganda, Shams Tabriziy Mavlono Jaloliddin ruhini zohiriy bilgilar, tushunchalar doirasidan, zohiriy ibodat dunyosidan uzoqlashtirib, tuyg'u va tushuncha olamlarining keng va asrorli ufqlariga parvoz ettirgan. Uni kitoblarning tashqarisidagi sirlarni tuymoq, tanimoq, anglamoq sari yetaklagan, o'ziga xos bir iymon va hayajon olamiga yo'llab, samo zavqini tottirgan.

Ustozu pirlari haqida so'z borganda, Rumiyning o'zi ham bir baytida: "Agar Attor menga ruh baxsh etgan bo'lsa, Shamsi Tabriziy tilsim kalitini tutqazdi" deganini eslatish joiz".

Charxi falak aylanur sayron,

Hazrati Nuh kema yasaydi.

Matnda Nuh payg'ambarning kema yasashi va inson vujudining yo'qlikka qarab yo'l olishi uning kemasiga o'xshatilishi orqali hayotiy evrilishlar va qutulish ramzi sifatida talmeh qilingan.

Tasbihini tayoqqa sotib

To'ng'iz boqib yurar San'onlar..

Ishq yo'lida tasbihini tayoqqa sotib, to'ng'iz boqish darajasiga yetgan oshiq timsolida keltiriladi

Har narsaga qodir edi Ishq

To Ishq Zulayho esa to Ishq bu holdir

Ya'qub qani? Yusufi Kan'on qayoqda?

Ishq mavzusi va zindon talqini doirasida Yusufi Kan'on, uning hijronida qolgan Ya'qub hamda unga oshiq bo'lgan Zulayho obrazlari an'anaviy talmeh asosini tashkil etgan.

Sahroga uloqqan jonlar qatida

Yashardi Yassaviy, Rumi, Robiya

Sahroga uloqqan jonlar qatida yashagan ilohiy ishq sohiblari va komil murshidlar sifatida birgalikda eslanadi.

Xulosalar shuni ko'rsatadiki, mazkur intertekstual birliklar matnlararo aloqani rivojlantirib, assosiativ vazifa bajarish orqali o'quvchi tafakkurida voqelikni gavdalantirib, intertekstuallikni yuzaga keltirgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Маҳкам, Асқар. Ваҳдат куйи. – Т.: "Nurafshon business", 2021.
2. Пьеге-Гро Натали Введение в теорию интертекстуальности: Пер. с фр. / Общ. ред. и вступ. ст. Г. К. Косикова. – М.: Издательство ЛКИ, 2008.
3. Саидов Акмал. Қийсий адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2020.

4. Hasanov S. Hozirgi o'zbek va ingliz nasrida intermatn hodisasi talqini (Isajon Sulton, Bahodir Qobul va Kadzuo Isiguro asarlari misolida) Filol. fan. ... fals. dok. diss. – Samarqand, 2025